SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEV BEKZODJON MURTAZAYEVICH

BIRJINSLIMAS SUYUQLIKLARNING G‘OVAK MUHITLARDA SIZISHI JARAYONLARINI KO‘P BOSQICHLI KINETIKA ASOSIDA TADQIQ ETISH

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UDK:532.546

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEV BEKZODJON MURTAZAYEVICH

BIRJINSLIMAS SUYUQLIKLARNING G‘OVAK MUHITLARDA SIZISHI JARAYONLARINI KO‘P BOSQICHLI KINETIKA ASOSIDA TADQIQ ETISH

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/FM318 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Xo'jayorov Baxtiyor** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Degtyarev Vladimir Vladimirovich** texnika fanlari doktori, professor
	Normurodov Chori Begaliyevich fizika-matematika doktori, professor
	Xolmurodov Abdulxamid Erkinovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM/T.09.03 raqamli Ilmiy kengashning «11» sentabr 2026 yil soat 10^{00}dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (57 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «26» avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil «26» avgust dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • O'ZBEKISTON

R.I.Xalmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

J.A.Akilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda suv resurslaridan oqilona foydalanish, yer osti suvlarini muhofaza qilish va g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi jarayonlarini chuqur o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, “2024-yil holatida dunyoda 2,2 milliard kishi xavfsiz ichimlik suvi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas”[1]. Suv resurslarining sifat jihatidan yomonlashuvi, g‘ovak muhitlarda ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishi, yer osti suvlarining minerallashuvi va antropogen ta’sirlarning kuchayishi modda ko‘chishi jarayonlarini aniq matematik modellashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu borada, birjinslimas suyuqliklarning g‘ovak muhitlarda harakatlanishi modellarini ko‘plab fizik, mexanik va kimyoviy omillarni hisobga olgan holda takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda neft-gaz konlarining samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash, yer osti suvlarining harakatini prognozlash, kimyoviy reagentlarning g‘ovak muhitlarda tarqalishini baholash va ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, ko‘plab texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarida g‘ovak va yoriq-g‘ovak muhitlarda bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklarning sizish muammolarining vujudga kelishi sababli, dispers tizimlarning g‘ovak muhitlarda sizishi jarayonlarini modellashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, suv resurslariga bo‘lgan talabning global ravishda oshib borayotganligi, neft va gaz qazib olish jarayonida suv haydash bilan bog‘liq ikkilamchi usulning ko‘proq ishlatilayotganligi sababli g‘ovak muhitlarda bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklar sizishi va modda ko‘chishi jarayonlarining matematik modellarini takomillashtirish, masalalarni yechishning samarali algoritmlarini yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida zamonaviy matematik modellashtirish yondashuvlarini joriy etish, hisoblash tajribalarini o‘tkazish hamda natijalarni vizual tahlil qilishga asoslangan avtomatlashtirilgan dasturiy vositalarni yaratish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Respublikamizda “… ichimlik suvi ta’minoti va oqava suv xizmatlari sohasi faoliyatini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etishni ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash hamda sohaga innovatsion texnologik yechimlar, ilmiy asoslangan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish” ga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida[2]» gi 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli Farmon hamda «O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish

[1] https://www.un.org/sustainabledevelopment/water-and-sanitation/

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[3]» gi 2019-yil 30-oktabrdagi PQ-4040-sonli Qarorda suv resurslarini boshqarishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalar va matematik modellashtirish usullaridan foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, tejamkor va ekologik xavfsiz materiallar asosida yangi suv tozalash quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, jumladan, suv tozalash inshootlarida ishlatiladigan filtrlarning optimal parametrlarini matematik modellashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda aniqlash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-son “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.[4]

Bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklarning g‘ovak muhitlarda sizishi jarayonlari bo‘yicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Amerika neft instituti (API), Texas universiteti, Adelaida universiteti, Yangi Janubiy Uils universiteti (AQSH), Neft muhandisligi instituti (Germaniya), Norvegiya fan va texnika universiteti (Norvegiya), Neft va gaz instituti (Shotlandiya), Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya), Oksford energetik tadqiqotlar instituti (Angliya), Xitoy neft universiteti (Xitoy), Yangi Janubiy Uils universiteti (Avstraliya), PETRONAS texnologik universiteti (Malaziya), Meksika neft instituti (Meksika), Qirol Fahd nomidagi neft va foydali qazilmalar universiteti (Saudiya Arabistoni), RFA SB neft kimyosi instituti, Akademik A. P. Krilov nomidagi Butunrossiya nefte-gaz ilmiy-tadqiqot instituti, I. M. Gubkin nomidagi Rossiya Davlat neft va gaz universiteti, Neft-gaz ilmiy-tadqiqot loyihalari (Ozarbayjon); Neft sanoati ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Samarqand Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya neft-gaz instituti Toshent filiali (O‘zbekiston).

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 noyabrdagi PQ-4040-son “O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.

[4] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, http://www.mathnet.ru; http://msp.org/jomms/about/cover/cover.html; http://link.springer.com; http://www.sciencedirect.com; http://www.dissercat.com/catalog/fiziko-matematicheskie-nauki va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Dunyo miqyosida bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklarning g‘ovak muhitlarda sizishi jarayonlarini tadqiq qilishda bir qator ilmiy natijalar olingan, jumladan, nazariy usullar ishlab chiqilgan (Neft muhandisligi instituti, Germaniya, Amerika neft instituti, AQSH, Yaponiya neft instituti, Yaponiya, Neft qidirish va ishlab chiqarish ilmiy-tadqiqot instituti, Xitoy, Neft va gaz instituti, Rossiya, RFA SB Neft kimyosi instituti, Rossiya, Akademik A. P. Krilov nomidagi Butunrossiya neft-gaz ilmiy-tadqiqot instituti, Rossiya, RFA neft va gaz muammolari instituti, Rossiya, "O‘ZLITINEFTGAZ", O‘zbekiston).

Hozirda dunyoda ichimlik suvlarini tozalash va konlarning neft beruvchanligini oshirish maqsadida ikkilamchi va uchlamchi ishlov berish muammolari nazariyasini ishlab chiqish va muammoni yechishning samarali usullarini topishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan, bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklarning g‘ovak muhitlarda sizishi nazariyasini takomillashtirish va shu asosda ichimlik suvlarini tozalash va neft qazib olishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda g‘ovak muhitlarda birjinslimas suyuqliklar sizishi masalalari bo‘yicha bir qator olimlar: T.Iwasaki, D.M.Mins, K.Ives, M.Sharma, M.Elimelech, J.Bear, Ch.Tien, P.Bedrikovetsky, A.Adin, M.Rebhun, J.Herzig, V.Gitis, G.Barenblat, Yu.M.Shextman, A.X.Mirzadjanzade, Ye.V.Venetsianov, K.S.Basniyev, D.Mixaylov, A.Nikiforov va boshqa xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda suyuqlik va gazlarning g‘ovak muhitlarda sizishi jarayonlari matematik modellari va hisoblash usullarini ishlab chiqishda F.B.Abutaliyev, J.F.Fayzullayev, N.M.Muxiddinov, R.Sadullayev, I.Alimov, J.Akilov, B.X.Xo‘jayorov, I.K.Xujayev, N.Ravshanov, Sh.Qayumov, V.F.Burnashev, J.Maxmudov va boshqa olimlarning ulkan hissalari qo‘shilgan.

G‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi va suspenziya sizishi jarayonlarini matematik modellashtirish zamonaviy fan va texnikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu jarayonlarni matematik modellashtirishning rivojlanishi bilan innovatsiyalar va texnologik taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Birjinslimas suyuqliklarning g‘ovak muhitlarda sizishi va modda ko‘chishi jarayonida harakatdagi suyuqlik va g‘ovak muhit devorlarining o‘zaro ta’siri murakkab jarayon bo‘lib, bu kabi muammolarni tadqiq qilishda konveksiya, molekulyar diffuziya, dispersiya, o‘tirib qolish kabi hodisalarni hisobga olgan holda balans va kinetika tenglamalarini keltirib chiqarish va ularni tenglamalar sistemasi sifatida birgalikda tahlil qilishni taqozo etadi, bu xususiy hosilali nochiziqli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar matematik nuqtai nazardan murakkab ekanligi va bugungi kunda yetarli darajada o‘rganilmaganligini g‘ovak muhitlarda suyuqliklar sizishi va modda ko‘chishi bo‘yicha bajarilgan ilmiy ishlarning tahlilidan kelib chiqadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining OT-F4-64 «Birjinslimas g‘ovak muhitlarda moddalarning ko‘chishi va suyuqliklarning sizishi gidrodinamik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish» (2017-2020) va FZ-

2020092877 «Bir jinsli boʻlmagan gʻovak muhitlarda anomal moddalar koʻchishi va suyuqliklar sizishi jarayonlarining matematik modellarini tuzish va sonli tadqiq etish» (2022-2027) mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi murakkab kinetikaga olib keluvchi turli omillarni hisobga olib gʻovak muhitlarda modda koʻchishi va suyuqliklar sizishi jarayonlarining matematik modellarini tuzish, sonli tahlil qilish va model parametrlarini identifikatsiyalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

suspenziyalarning gʻovak muhitlarda sizishi masalasini konvektiv koʻchish, gidrodinamik dispersiya, muallaq zarralar oʻtirib qolishi va qayta oqimga qoʻshilishi va boshqalarni hisobga olib modda koʻchishi matematik modelini takomillashtirish va masalalarni sonli yechish;

ikki komponentali suspenziyalarning gʻovak muhitlarda sizishi jarayonining dinamik omillar, diffuziya va koʻp bosqichli kinetikani hisobga olgan holda matematik modelini takomillashtirish va sonli tahlil qilish;

gʻovak muhitlarda modda koʻchishi jarayonining matematik modellari parametrlarini identifikatsiyalashga oid teskari masalalar yechish;

gʻovak muhitlarda modda koʻchishining gibrid modelini tuzish. Bunda keyk qatlam hosil qilib suspenziya suzulishi (cake filtration) matematik modeli muhitning ichki qismida choʻkma hosil boʻlib birjinslimas suyuqliklar sizishi (deep bed filtration) modellari bilan “tikiladi”;

gʻovak muhitlarda modda koʻchishining gibrid modelini tuzish koʻp bosqichli kinetikani hisobga olgan holda takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti gʻovak muhit va unda choʻkma hosil qilib sizuvchi bir jinsli boʻlmagan suyuqlikdan iborat.

Tadqiqotning predmeti gʻovak muhitlarda suspenziyalar sizishi jarayonlarining matematik modellari, hisoblash algoritmlari va gidrodinamik tahlilidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada matematik modellashtirish, tutash muhitlar mexanikasi, hisoblash matematikasi va hisoblash eksperimenti usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

suspenziyalarning gʻovak muhitlarda sizishi modeli koʻp bosqichli kinetika tenglamasi asosida muhit parametrlarining oʻzgaruvchanligi, “eskirish”, “yuklanish” hodisalarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

ikki komponentali suspenziyalarning gʻovak muhitlarda sizishi jarayonining matematik modeli dinamik omillar, diffuziya va koʻp bosqichli kinetikani hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

gʻovak muhitlarda modda koʻchishi jarayonining matematik modellari parametrlarini identifikatsiya qilish algoritmlari ishlab chiqilgan;

gʻovak muhitlarda modda koʻchishining teskari masalalarini yechish uchun parallel hisoblashga asoslangan samarali algoritm ishlab chiqilgan;

gʻovak muhitlarda keyk qatlam hosil qilib suspenziya suzulishi (cake filtration) va muhitning ichki qismida choʻkma hosil boʻlib suspenziya sizishi (deep bed filtration) jarayonlarini bir vaqtning o‘zida hisobga oluvchi gibrid matematik model tuzilgan;

g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishining gibrid modeli ko‘p bosqichli kinetika tenglamasi asosida “eskirish”, “yuklanish” hodisalarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi jarayonining takomillashtirilgan matematik modellari va hisoblash algoritmlari tutash muhitlar mexanikasi va gidrogeologiya masalalarini yechishda qo‘llanilgan;

bir va ko‘p komponentali suspenziyalarning g‘ovak muhitlarda sizishi masalalarini sonli yechishning samarali algoritmi ishlab chiqilgan;

g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi jarayonining matematik modellarini sonli realizatsiya qilish va parametrlarini identifikatsiya qilish uchun dasturiy majmua yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Modda ko‘chishi modellarini tuzishda ko‘p fazali tizimlar uchun fundamental saqlanish qonunlaridan foydalanilgan, ular fizik korrektlikni ta’minlash maqsadida fenomenologik munosabatlar bilan to‘ldirilgan. Moddalarning ko‘chish jarayonida g‘ovak muhitlarda o‘tirib qolishi va qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilishi yangi kinetik tenglamasini tuzishda fenomenologik yondashuvdan foydalanilgan va har bir faraz sinchiklab asoslangan. Sonli usullarni qo‘llashda ularning turg‘unligi tekshirilgan va talab qilingan aniqlikdagi approksimatsiyalardan foydalanilgan. Olingan natijalar fizik jihatdan batafsil tahlil qilingan va ularning real fizik jarayonlarga mosligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘plab hodisalarni hisobga olgan holda yaratilgan nazariy asos va matematik modellar, sonli usul va algoritmlar g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi nazariyasiga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati oqova va ichimlik suvlarini tozalash, neft va gaz konlariga ikkilamchi ishlov berish, gidrogeologiya kabi sohalardagi sizish jarayonlarini sifat va miqdor jihatdan baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘p bosqichli cho‘kish kinetikasi asosida moddalarning g‘ovak muhitlarda ko‘chishi modellarini tuzish va sonli tadqiq etish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy vositalar asosida:

Malayziya Terengganu universiteti (Universiti Malaysia Terengganu) da bajarilgan UMT/CRIM/2- 2/2/14 Jld. 4(44), Vote No 55233 – sonli “Modified Homotopy Analysis Method for Solving System of Linear and Nonlinear Integral Equations and modelling on tension and scaling factor of the power cable” mavzusidagi xorijiy loyihani bajarishda ushbu dissertatsiya natijalaridan foydalanilgan (16.01.2024 – yil UMT/FSKM/500-45 – son ma’lumotnomasi). Fizika va muhandislikdagi ko‘plab masalalarning yechimini sonli hisoblash uchun chekli ayirmali sxemalarga asoslangan sonli algoritmlar va xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotdan foydalanilgan. Yuqoridagi algoritmdan foydalanib, giperbolik sistemalarda qaytariladigan tenglama uchun model masalalarining sonli yechimi olingan. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotdan foydalanish sonli yechimning model masalalarining aniq yechimiga yaqinlashishini asoslaydigan va natijalarni vizualizatsiya qiladigan hisoblash tajribalarini oʻtkazish imkonini bergan;

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida 2022–2024-yillarda bajarilgan № IL-21071166–sonli “Shamolning past tezligi uchun moʻljallangan vertikal oʻqli shamol turbinasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida qoʻllanilgan (2026-yil 11-mart, 331-3-sonli ma’lumotnoma). Xususan, shamol oqimining past tezliklardagi barqarorligini modellashtirishda reaksiya–diffuziya tipidagi tenglamalardan foydalanib matematik modellar tuzilgan. Hosil qilingan tenglamalar koeffitsiyentlarini har doim ham oshkor ravishda topib boʻlmaganligi sababli, dissertatsiyada ishlab chiqilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun koeffitsiyentli teskari masalalarni yechish usul va algoritmlariga oid natijalar ushbu modellar parametrlarini topishda qoʻllanilgan. Natijada shamolning kichik tezliklarida samarali faoliyat koʻrsatadigan, vertikal aylanish oʻqi va harakatlanuvchi ishchi elementlarga ega shamol energiya qurilmasining optimal parametrlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

gʻovak muhitlarda ikki komponentali suspenziya sizishi takomillashtirilgan modeliga oid ilmiy natijalardan yetakchi xorijiy jurnallarda (International Journal of Non-Linear Mechanics, Volume 167, December 2024, 104905, Annali di Matematica Pura ed Applicata, Volume 2012, May 2022, 2943–2964, Applied Mathematics and Mechanics, Volume 45, January 2024, 355–372) birjinslimas suyuqliklarning gʻovak muhitlarda sizishi masalalarini tadqiq qilishda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi qaralayotgan masalalarning adekvat modellarini tuzish imkonini bergan;

gʻovak muhitlarda suspenziya sizishi masalasini sonli yechish algoritmiga oid ilmiy natijalardan yetakchi xorijiy jurnallarda (Journal of Applied Engineering Science, Volume 19, January 2021, 768, Geoenergy Science and Engineering,Volume 235, April 2024, 212696, Journal of Physics: Conference Series, Volume 1926, January 2021, 012001) ba’zi nochiziqli differensial tenglamalarga mos masalalarni tadqiq qilishda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi qaralayotgan masalalarning sonli yechimini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 34 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 25 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 53 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Xorijiy jurnallarda chop etilgan 10 ta maqolaning hammasi Scopus bazasida indekslangan jurnallarda, shu jumladan 4 tasi Q1-Q2 kvartilga kiruvchi jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 165 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, uning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan muvofiqligi bayon qilingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari berilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida g‘ovak muhitlarda modda ko‘chishi va suspenziya sizishi jarayonlari, keyk qatlam hosil qilib suspenziya suzulishi (cake filtration) va muhitning ichki qismida cho‘kma hosil bo‘lib birjinslimas suyuqliklar sizishi (deep bed filtration) jarayonlarini modellashtirishda foydalanilgan yondashuvlar haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Shu vaqtgacha qo‘llanilgan yondashuvlarning umumiy xarakterli xususiyatlari aniqlangan. Xususan, modellashtirishning fenomenologik yondashuvlari (modda balansi va boshqa) tenglamalaridan, shuningdek, umumlashgan Darsi qonunidan foydalanishga asoslangan. Shuningdek, bu modellar asosida tuzilgan to‘g‘ri va teskari masalalarni sonli yechish usullari sharhlangan.

Dissertatsiyaning “Ko‘p bosqichli cho‘kma kinetikasi asosida g‘ovak muhitda suspenziya sizishini matematik modellashtirish” deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘p bosqichli cho‘kma kinetikasini hisobga olgan holda g‘ovak muhitda suspenziya sizishining to‘g‘ri masalalari qaralgan. Ushbu jarayonlarni matematik modellashtirish oqimning gidrodinamik parametrlari, g‘ovak muhitning tuzilishi va suspenziya tarkibidagi muallaq zarrachalarning o‘tirib qolishi va qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilishi mexanizmlari kabi bir qator omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Faraz qilaylik, ma’lum bir $t > 0$ vaqtdan boshlab, toza (muallaq zarrachalarsiz) suyuqlik bilan to‘yingan, boshlang‘ich g‘ovakligi m_0 va L uzunlikdagi g‘ovak muhitga o‘zgarmas $v(t) = v = const$ tezlik bilan c_0 konsentratsiyali suspenziya kirishi boshlansin. Bir o‘lchovli holatda suspenziya oqimidagi muallaq zarralarning massa balansi tenglamasi quyidagi shaklga ega

$$m_0 \frac{\partial c}{\partial t} + v \frac{\partial c}{\partial x} + \frac{\partial \rho}{\partial t} = D \frac{\partial^2 c}{\partial x^2}, \qquad (1)$$

bu yerda c - suspenziya konsentratsiyasi, v - sizish tezligi (m/s), m_0 - boshlang‘ich g‘ovaklik, ρ - cho‘kma konsentratsiyasi, D - diffuziya koeffitsiyenti, x – koordinata, t - vaqt.

Cho‘kish kinetika tenglamasi quyidagi shaklda olinadi

$$\frac{\partial\rho}{\partial t}=\begin{cases}\beta_1 vc, & 0<\rho\le\rho_1,\\ \beta_2 vc-\beta_3(1+\gamma|\nabla p|)\rho, & \rho_1<\rho\le\rho_2,\\ \beta_2\frac{\rho_0}{\rho}vc-\beta_3(1+\gamma|\nabla p|)\rho, & \rho_2<\rho<\rho_0,\\ 0, & \rho=\rho_0,\end{cases} \tag{2}$$

bu yerda, ρ_0 – filtrning umumiy sig‘imi, ρ_1 - ρ ning “yuklanish” yakunlanadigan qiymati, β_1 - “yuklanish” effekti bilan bog‘liq kinetika koeffitsiyenti, β_2 - zarrachalarning cho‘kishi bilan bog‘liq koeffitsiyent, β_3 - zarrachalarning qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilishi bilan bog‘liq koeffitsiyent, $|\nabla p|$ - bosim gradiyenti moduli, γ - bosim gradiyentining zarrachalarning qayta suyuqlik oqimiga ta’sirini ifodalovchi o‘zgarmas koeffitsiyent.

$|\nabla p|$ ni topish uchun Darsi qonunidan foydalanamiz

$$v=K(m)|\nabla p|, \tag{3}$$

bu yerda $K(m)$ sizish koeffitsiyenti, $m=m_0-\rho$ joriy g‘ovaklik.

$K(m)$ ni topish uchun Karmen- Kozeni tenglamasidan foydalanamiz

$$K(m)=k_0m^3/(1-m)^2,\ k_0=const. \tag{4}$$

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar quyidagi shaklda olinadi

$$c(0,t)=c_0=const,\ \frac{\partial c}{\partial x}=0,\quad x=L,\quad t>0,\ c(x,0)=0,\quad \rho(x,0)=0. \tag{5}$$

(1)-(5) masala chekli ayirmalar usuli yordamida yechildi. $D=\{0\le x\le L,\ 0\le t\le T\}$ sohada to‘r kiritamiz. Buning uchun biz $[0,L]$ intervalni h qadam bilan va $[0,T]$ ni τ qadam bilan bo‘laklarga ajratamiz, bu yerda T sizish jarayoni o‘rganilayotgan vaqt. Natijada quyidagi to‘rga ega bo‘lamiz

$$\omega_{h\tau}=\left\{(x_i,t_j),\ x_i=ih,\ i=0,1,...I,\ t_j=j\tau,\ j=0,1,...,J,\quad \tau=T/J\right\}.$$

$c(t,x)$, $\rho(t,x)$ funksiyalar o‘rniga (x_i,t_j) tugunlardagi qiymatlari mos ravishda $c_i^j\,.\rho_i^j$ bo‘lgan to‘r funksiyalari kiritiladi.

(1)-(4) tenglamalar $\omega_{h\tau}$ to‘rda quyidagicha approksimatsiya qilinadi

$$m_0\frac{c_i^{j+1}-c_i^j}{\tau}+v_0\frac{c_i^{j+1}-c_{i-1}^{j+1}}{h}+\frac{\rho_i^{j+1}-\rho_i^j}{\tau}=D\frac{c_{i-1}^{j+1}-2c_i^{j+1}+c_{i+1}^{j+1}}{h^2}, \tag{6}$$

$$\frac{\rho_i^{j+1}-\rho_i^j}{\tau}=\begin{cases}\beta_1 vc_i^j, & 0<\rho_i^j\le\rho_1,\\ \beta_2 vc_i^j-\beta_3\left(1+\gamma|\nabla p|_i^{j+1}\right)\rho_i^j, & \rho_1<\rho_i^j\le\rho_2,\\ \beta_2\frac{\rho_0}{\rho_i^j}vc_i^j-\beta_3\left(1+\gamma|\nabla p|_i^{j+1}\right)\rho_i^j, & \rho_2<\rho_i^j<\rho_0,\\ 0\,, & \rho_i^j=\rho_0,\end{cases}, \tag{7}$$

$$\left|\nabla p\right|_i^{j+1}=\frac{v_0\left(1-m_0+\left(\rho_{a,i}^j+\rho_{n,i}^j\right)\right)^2}{k_0\left(m_0-\left(\rho_{a,i}^j+\rho_{n,i}^j\right)\right)^3}. \tag{8}$$

(5) boshlang‘ich va chegaraviy shartlari ham approksimatsiya qilinadi

$$c_i^0=0,\ \rho_i^0=0,\ i=\overline{0,I},\ c_0^j=c_0,\ j=\overline{0,J},\ c_I^j-c_{I-1}^j=0,\ j=\overline{0,J}. \tag{9}$$



1-rasm. c/c_0 (a), ρ (b) profillari, bu yerda $\rho_1=0,6$, $\rho_2=7$.

1-rasmda turli vaqt momentlarida c/c_0 muallaq zarrachalarning nisbiy konsentratsiyasi va ρ cho‘kma konsentratsiyasining profillari ko‘rsatilgan. $t=9h$ (1.a-rasm) da c/c_0 profilining sezilarli oldinga siljishi kuzatiladi, bu zarrachalar cho‘kishining deyarli to‘liq yo‘q bo‘lgan davriga to‘g‘ri keladi. Buni, "yuklanish" bosqichida cho‘kish intensivligi juda past bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Vaqt o‘tishi bilan zarrachalar cho‘kishi jarayoni butun filtr zonasini qoplaydi va maksimal qiymatigacha yetadi.

Ikki komponentli suspenziyalarning matematik modeli bir komponentli suspenziya uchun modelning umumlashtirish natijasida hosil qilinadi. Zarrachalar massasi balansi tenglamasi har bir komponenta uchun yoziladi, bu bir o‘lchovli shakldа quyidagi shaklda ifodalanadi

$$m_0\frac{\partial c^{(i)}}{\partial t}+v\frac{\partial c^{(i)}}{\partial x}+\frac{\partial \rho^{(i)}}{\partial t}=D^{(i)}\frac{\partial^2 c^{(i)}}{\partial x^2}, \tag{10}$$

bu yerda $c^{(i)}$ - suspenziya i - komponenti tarkibidagi muallaq zarrachalar konsentratsiyalari, $\rho^{(i)}$ - i- komponentning cho‘kma konsentratsiyalari, $D^{(i)}$ - i-komponent uchun diffuziya koeffitsiyenti (m^2/s), $i=1,2$, komponent raqamlariga mos keladi.

Kinetik tenglamalarni quyidagi shaklda olamiz

$$\frac{\partial \rho^{(1)}}{\partial t}=\begin{cases}\beta_r^{(1)} v c^{(1)}, & 0<\rho^{(1)}\le\rho_1^{(1)},\\ \dfrac{\beta_a^{(1)} v c^{(1)}}{1+\gamma^{(1)}\left|\nabla p\right|}-\beta_d^{(1)}\left(1+\omega^{(1)}\left|\nabla p\right|\right)\rho^{(1)}, & \rho_1^{(1)}<\rho^{(1)},\ \rho^{(1)}+\rho^{(2)}<\rho_0,\\ 0, & \rho^{(1)}+\rho^{(2)}=\rho_0,\end{cases} \tag{11}$$

$$\frac{\partial\rho^{(2)}}{\partial t}=\begin{cases}\beta_r^{(2)}vc^{(2)}, & 0<\rho^{(2)}\le\rho_1^{(2)},\\ \dfrac{\beta_a^{(2)}vc^{(2)}}{1+\gamma^{(2)}|\nabla p|}-\beta_d^{(2)}\left(1+\omega^{(2)}|\nabla p|\right)\rho^{(2)}, & \rho_1^{(2)}<\rho^{(2)}<\rho_0^{(2)},\rho^{(1)}+\rho^{(2)}<\rho_0,\\ 0, & \rho^{(2)}=\rho_0^{(2)}\text{ or }\ \rho^{(1)}+\rho^{(2)}=\rho_0,\end{cases}\quad(12)$$

bu yerda $\gamma^{(i)}$, $\omega^{(i)}$ doimiy koeffitsiyentlardir.

Bir o‘lchovli holatda Darsi qonuni quyidagi shaklga ega

$$v=K(m)|\nabla p|,\ m=m_0-\left(\rho^{(1)}/\rho_d^{(1)}+\rho^{(2)}/\rho_d^{(2)}\right),\quad(13)$$

bu yerda $K(m)$ sizish koeffitsiyenti, $\rho_d^{(i)}$ zarrachalar materiallarining zichligi, kg/m^3.

Boshlang‘ich va chegara shartlari quyidagi shaklga ega

$$c^{(i)}(x,0)=0,\ \ \rho^{(i)}(x,0)=0,\quad(14)$$

$$c^{(i)}(0,t)=c_0^{(i)}=\text{const},\ \frac{\partial c^{(i)}}{\partial x}=0,\ \ x=L,\ \ t>0.\quad(15)$$

(10) - (15) masala chekli ayirmalar usuli bilan yechilgan.

Passiv zonalarning sig‘imi uchun $\rho_0^{(1)}=15$ va $\rho_0^{(2)}=5$ ishlatilgan. Muhitning kirish qismiga yaqin joyda, vaqt o‘tishi bilan suspenziyaning birinchi komponentining konsentratsiyasi birinchi komponent uchun muhitning sig‘imidan kattaroq bo‘ladi, ya’ni $\rho^{(1)}>\rho_0^{(1)}$. Shu sababli, ikkinchi komponent uchun passiv zonaning sig‘imi nafaqat $\rho^{(2)}$ konsentratsiyasi bilan , balki $\rho^{(1)}$ bilan ham to‘yingan. Taxminan $t=30h$ da, ikkinchi komponentning cho‘kma konsentratsiyasi x ning ma’lum qiymatigacha biroz oshadi va keyin kamayadi. Vaqt o‘tishi bilan $\rho^{(1)}$ ning ortish oralig‘i kengayadi.

Endi, boshlang‘ich g‘ovakliligi m_0 bo‘lgan, birjinsli suyuqlik bilan to‘ldirilgan yarim cheksiz birjinsli g‘ovak muhitni qaraymiz. $x=0$ nuqtada $c_0=c_0^{(1)}+c_0^{(2)}$konsentratsiyali ikki komponentli suspenziya ($c_0^{(1)}$, $c_0^{(2)}$ mos ravishda kiruvchi suspenziyasidagi birinchi va ikkinchi turdagi zarrachalarning konsentratsiyalari) $v(t)=v=const$ tezlik bilan g‘ovak muhitga yuboriladi.

Diffuziya hadini o‘z ichiga olgan berilgan o‘zgarmas oqim tezligi rejimiga ega bo‘lgan balans tenglamasi quyidagicha:

$$m\frac{\partial c^{(i)}}{\partial t}+v\frac{\partial c^{(i)}}{\partial x}+\frac{\partial\rho_a^{(i)}}{\partial t}+\frac{\partial\rho_n^{(i)}}{\partial t}=D^{(i)}\frac{\partial^2c^{(i)}}{\partial x^2}\quad(16)$$

bu yerda m muhitning joriy g‘ovakliligi, $c^{(i)}$ suspenziyaning i - komponentining konsentratsiyasi, $\rho_a^{(i)}$, mos ravishda $\rho_p^{(i)}$suspenziyaning i - komponentining aktiv va passiv zonalarida cho‘kma konsentratsiyasi, $D^{(i)}$ har bir komponent uchun diffuziya koeffitsiyenti, $i=1,2$ komponentlar soniga mos keladi.

Ikki komponentli suspenziya uchun aktiv zonada zarrachalarning o‘tirib qolishi va qayta oqimga qo‘shilishi jarayonining kinetik tenglamasi quyidagicha umumlashtirildi.

$$\frac{\partial \rho_a^{(i)}}{\partial t} = \frac{\beta_a^{(i)}}{1+\gamma^{(i)}\left|\nabla p\right|} c^{(i)} - \beta_a^{(i)} \frac{\rho_a^{(i)}\left(1+\omega^{(i)}\left|\nabla p\right|\right)}{\rho_{a0}^{(i)}} c_0^{(i)} \tag{17}$$

bu yerda $i=1,2.$, $\rho_{a0}^{(i)}$ - suspenziyaning *i*-komponenti uchun aktiv zonalarning sig‘imi, $\beta_a^{(i)}$ suspenziyaning *i*-komponenti uchun aktiv zonasidagi kinetikani tavsiflovchi koeffitsiyent, $\gamma^{(i)}$, $\omega^{(i)}$ aktiv zonada o‘tirib qolishi va qayta oqimga qo‘shilishi jarayoniga bosim gradientining ta’sir intensivligini tavsiflovchi doimiy koeffitsiyentlardir.

Passiv zonada qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilmaydigan cho‘kma hosil bo‘lishi kinetikasining tenglamalari quyidagicha

$$\frac{\partial \rho_p^{(i)}}{\partial t} = \beta_p^{(i)} \phi_i\left(\rho_p^{(1)}, \rho_p^{(2)}\right) c^{(i)} \tag{18}$$

bu yerda $\beta_p^{(i)}$ suspenziyaning *i*-komponentining passiv zonasidagi kinetikasini koeffitsiyent.

Cho‘kmaning siqilishi (“eskirishi”) ta’sirini tavsiflovchi parametrlar quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi $\phi_i\left(\rho_p^{(1)}, \rho_p^{(2)}\right)$

$$\phi_1\left(\rho_p^{(1)}, \rho_p^{(2)}\right) = \begin{cases} 1, & 0 < \rho_p^{(1)} \le \rho_{p1}^{(1)}, \\ \rho_{p1}^{(1)} \big/ \rho_p^{(1)}, & \rho_{p1}^{(1)} < \rho_p^{(1)},\ \rho_p^{(1)} + \rho_p^{(2)} < \rho_{p0}, \\ 0, & \rho_p^{(1)} + \rho_p^{(2)} = \rho_{p0}, \end{cases} \tag{19}$$

$$\phi_2\left(\rho_p^{(1)}, \rho_p^{(2)}\right) = \begin{cases} 1, & 0 < \rho_p^{(2)} \le \rho_{p1}^{(2)}, \\ \rho_{p1}^{(2)} \big/ \rho_p^{(2)}, & \rho_{p1}^{(2)} < \rho_p^{(2)} < \rho_{p0}^{(2)},\ \rho_p^{(1)} + \rho_p^{(2)} < \rho_{p0}, \\ 0, & \rho_p^{(2)} = \rho_{p0}^{(2)}\ or\ \rho_p^{(1)} + \rho_p^{(2)} = \rho_{p0}, \end{cases} \tag{20}$$

bu yerda $\rho_{p1}^{(i)}$ - suspenziyaning mos keladigan komponenti uchun cho‘kmaning siqilishini (“eskirishi”) boshlaydigan chegaraviy konsentratsiyalar, ya’ni $\rho_p^{(i)} > \rho_{p1}^{(i)}$ dan boshlab “eskirish” hodisasi kuzatiladi.

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar quyidagicha

$$c^{(i)}(x,0) = 0, \quad \rho_a^{(i)}(x,0) = \rho_p^{(i)}(x,0) = 0,\ c^{(i)}(0,t) = c_0^{(i)} = \text{const}. \tag{21}$$

(16)-(21) masalasini yechish uchun biz chekli ayirmalar usulidan foydalanamiz.

2-rasmda $c^{(i)}$, $\rho_a^{(i)}$ va $\rho_p^{(i)}, (i=1,2)$ o‘zgarishlar profillari dinamik omillar va diffuziya effektlari bilan ko‘rsatilgan. Vaqt o‘tishi bilan qatlamdagi fiksirlangan nuqtalarda $c^{(i)}$, $\rho_a^{(i)}$va $\rho_p^{(i)}$ qiymatlari oshadi (2-rasm). Passiv zonalarning sig‘imi uchun $\rho_{p0}^{(1)}=0,06$, $\rho_{p0}^{(2)}=0,03$ ishlatilgan. 2c-rasmdan ko‘rinib turibdiki, muhit kirish joyiga yaqin joyda, vaqt o‘tishi bilan suspenziyaning birinchi komponentining konsentratsiyasi birinchi komponenta uchun passiv zonaning sig‘imidan kattaroq bo‘ladi, ya’ni $\rho_p^{(1)} > \rho_{p0}^{(1)}$. Shu sababli, ikkinchi komponent uchun passiv zonaning sig‘imi nafaqat konsentratsiya $\rho_p^{(2)}$ bilan, balki $\rho_p^{(1)}$ bilan ham to‘yingan.



2-rasm. $c^{(1)}, c^{(2)}$ (a), $\rho_a^{(1)}, \rho_a^{(2)}$ (b), $\rho_p^{(1)}, \rho_p^{(2)}$ (c) larning profillari, bu yerda

$$\rho_{p1}^{(1)}=0,030, \rho_{p1}^{(2)}=0,015,\ \gamma^{(1)}=\omega^{(1)}=0.1; \gamma^{(2)}=\omega^{(2)}=0.05,$$

$$D^{(1)}=2.0\cdot 10^{-6}\, m^2/s,\ D^{(2)}=1.5\cdot 10^{-6}\, m^2/s.$$

Dinamik omillar hisobga olinmagan holda masalalar qaralganda, har bir komponent uchun aktiv zonaning sig‘imi $\rho_{a_0}^{(i)}$, *x=0* nuqtada cho‘kma bilan to‘liq to‘yinganligini kuzatishimiz mumkin. Dinamik omillar hisobga olinganda esa, *x=0* nuqtada vaqt o‘tishi bilan avval $\rho_a^{(i)}$ ortadi, keyin kamayadi va nihoyat aktiv zonaning sig‘imi cho‘kma bilan to‘liq to‘yinmasdan oldin dinamik muvozanat yuzaga keladi.

Ko‘p komponentli suspenziya sizishining matematik modeli bitta komponentli holatning umumlashtirilishi bo‘lib, suspenziyaning har bir komponenti uchun massa balansi tenglamasi quyidagichadir ($i=1,2$)

$$\frac{\partial\left(mc^{(i)}\right)}{\partial t}+v\frac{\partial c^{(i)}}{\partial x}+\frac{\partial\rho_a^{(i)}}{\partial t}+\frac{\partial\rho_p^{(i)}}{\partial t}=D^{(i)}\frac{\partial^2 c^{(i)}}{\partial x^2}, \tag{22}$$

Aktiv zona uchun kinetika tenglamasi ko‘p bosqichlilikni hisobga olib quyidagicha takomillashtirildi

$$\frac{\partial\rho_a^{(i)}}{\partial t}=\begin{cases}\beta_r^{(i)}vc^{(i)}, & 0<\rho_a^{(i)}\le\rho_{ar}^{(i)},\\ \beta_a^{(i)}vc^{(i)}-\beta_d^{(i)}\rho_a^{(i)}, & \rho_{ar}^{(i)}<\rho_a^{(i)}<\rho_{a0}^{(i)},\\ 0, & \rho_a^{(i)}=\rho_{a0}^{(i)},\end{cases} \tag{23}$$

bu yerda $\beta_r^{(i)}$ - “yuklanish” hodisasi bilan bog‘liq kinetika tenglamasi, $\beta_a^{(i)}$, $\beta_d^{(i)}$ - mos ravishda muallaq zarrachalarning o‘tirib qolishi va qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilishi intensivligini ifodalovchi kinetika koeffitsiyentlari.

3b-rasm natijalari shuni ko‘rsatadiki, faol zonadagi “yuklanish” hodisasining ta’siri konsentratsiyaning o‘zgarish profillariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Parametr oshgani sayin ikkita zona hosil bo‘ladi: biri $\rho_a^{(i)}\le\rho_{ar}^{(i)}$ bilan, ikkinchisi esa $\rho_a^{(i)}>\rho_{ar}^{(i)}$. Bu zonalarda filtrlash xususiyatlari turlicha o‘zgarish tezligiga ega. Aktiv zonadagi cho‘kma konsentratsiyasining o‘zgarish tezligi passiv zonadagi o‘tirib qolgan zarrachalar konsentratsiyasiga va cho‘kma xususiyatlariga ham ta’sir qiladi.



3-rasm. $c^{(1)}, c^{(2)}$ (a), $\rho_a^{(1)},\rho_a^{(2)}$ (b), $\rho_p^{(1)},\rho_p^{(2)}$ (c) ning $\rho_{ar}^{(1)}=0{,}004$, da joylashgan profillari $\rho_{ar}^{(2)}=0{,}002$.

“G‘ovak muhitda suspenziyani sizishining teskari masalalari” deb nomlangan 3-bobda model parametrlarini aniqlash bo‘yicha teskari masalalar shakllantirilgan va sonli yechilgan.

Quyidagi masalani qaraymiz: uzunligi L bo‘lgan, boshlang‘ich g‘ovakligi m_0 bo‘lgan, toza (muallaq zarrachalarsiz) suyuqlik bilan to‘yingan birjinsli g‘ovak muhitga, ma’lum $t>0$ vaqtdan boshlab, c_0 konsentratsiyali suspenziya $v(t)=v_0=\text{const}$ tezlik bilan kirishi boshlansin. U holda masalaning matematik modelini quyidagi tenglamalar sistemasi bilan ifodalash mumkin

$$m_0\frac{\partial c}{\partial t}+v_0\frac{\partial c}{\partial x}+\frac{\partial \rho}{\partial t}=D\frac{\partial^2 c}{\partial x^2}, \tag{24}$$

$$\frac{\partial \rho}{\partial t}=\begin{cases}\beta_r v_0 c, & 0<\rho\le\rho_r,\\ \beta_a v_0 c-\beta_d\rho, & \rho_r<\rho\le\rho_0,\\ 0, & \rho=\rho_0,\end{cases} \tag{25}$$

bu yerda c - suspenziya konsentratsiyasi (kg/m^3), ρ - cho‘kma konsentratsiyasi (kg/m^3), ρ_0 - filtrning umumiy sig‘imi (kg/m^3), D - diffuziya (yoki dispersiya) koeffitsiyenti, ρ_r - ρ ning shunday qiymatiki, shu qiymatda “yuklanish” hodisasi to‘xtaydi, β_r - “yuklanish” bosqichida muallaq zarrachalarning o‘tirib qolish intensivligini belgilovchi kinetika koeffitsiyenti, β_a - asosiy bosqichda muallaq zarrachalarning o‘tirib qolish intensivligini belgilovchi kinetika koeffitsiyenti, β_d - asosiy bosqichda o‘tirib qolgan zarrachalarning qayta suyuqlik oqimiga qo‘shilishini ifodalovchi kinetika koeffitsiyenti.

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni quyidagicha olamiz

